



2023- yil yanvar-aprel oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
74 224-80-57



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-aprel oylarilarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 585,5 mln AQSh** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **179,5 mln AQSh** dollariga yoki **12,8 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln AQSh dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1 585,5** - **12,8 %**

(2022- y.: **1 406,1**)



Saldo

2023- y.: **- 852,3** (2022 y.: **- 755,3**)



### Eksport

2023- y.: **366,6** - **12,7 %**

(2022- y.: **325,4**)



Tovarlar: **361,9**



Xizmatlar: **4,7**



### Import

2023- y.: **1 218,9** - **12,8 %**

(2022- y.: **1 080,7**)



Tovarlar: **1 184,0**



Xizmatlar: **34,9**











**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **366,6** mln AQSh dollariga (**12,7 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **1 218,9** mln AQSh dollariga (**12,8 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **852,3** mln AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel, mln AQSh dollari)

<b>Koreya Respublikasi</b> <b>TSA – 496,5</b> Eksport: 0,0 Import: 496,5  31,3%	<b>XXR</b> <b>TSA – 387,2</b> Eksport: 23,7 Import: 363,5  24,4%	<b>Qozog‘iston</b> <b>TSA – 148,9</b> Eksport: 145,3 Import: 3,6  9,4%	<b>Qirg‘iz Respublikas</b> <b>TSA – 95,5</b> Eksport: 85,3 Import: 10,2  6,0%	<b>Rossiya Federatsiyasi</b> <b>TSA – 93,6</b> Eksport: 56,3 Import: 37,3  5,9%
<b>Braziliya</b> <b>TSA – 73,2</b> Eksport: 0,1 Import: 73,1  4,6%	<b>Meksika</b> <b>TSA – 64,8</b> Eksport: - Import: 64,8  4,1%	<b>AQSH</b> <b>TSA – 51,6</b> Eksport: 0,2 Import: 51,4  3,3%	<b>Turkiya</b> <b>TSA – 36,5</b> Eksport: 10,2 Import: 26,3  2,3%	<b>Hindiston</b> <b>TSA – 22,1</b> Eksport: 0,0003 Import: 22,1  1,4%

Andijon viloyati jahonning **70** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (**31,3** %), XXRda (**24,4** %), Qozog‘istonda (**9,4** %), Qirg‘iz Respublikasida (**6,0** %), Rossiya Federatsiyasida (**5,9** %) va Braziliyada (**4,6** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Qirg‘iz Respublikasi, Qozog‘iston va Tojikiston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston bilan **1,4** barobarga oshdi.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-aprel mln AQSh dollari)



**Qozog‘iston – 141,7**



**Qirg‘iz Respublikasi – 75,1**



**Tojikiston – 5,4**























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln AQSh dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>342,0</b>	<b>627,9</b>	<b>496,5</b>
 <i>Eksport</i>	0,1	0,3	0,0
<i>Import</i>	341,9	627,6	496,5
<b>XXR</b>	<b>139,8</b>	<b>284,4</b>	<b>387,2</b>
 <i>Eksport</i>	30,6	40,3	23,7
<i>Import</i>	109,2	244,1	363,5
<b>Qozog'iston</b>	<b>115,2</b>	<b>111,4</b>	<b>148,9</b>
 <i>Eksport</i>	112,2	109,7	145,3
<i>Import</i>	3,0	1,7	3,6
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>85,0</b>	<b>116,0</b>	<b>95,5</b>
 <i>Eksport</i>	72,5	106,1	85,3
<i>Import</i>	12,5	9,9	10,2
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>63,8</b>	<b>100,3</b>	<b>93,6</b>
 <i>Eksport</i>	18,9	35,3	56,3
<i>Import</i>	44,9	65,0	37,3
<b>Braziliya</b>	<b>5,1</b>	<b>8,2</b>	<b>73,2</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,1
<i>Import</i>	5,1	8,1	73,1
<b>Meksika</b>	<b>1,2</b>	<b>2,2</b>	<b>64,8</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	1,2	2,2	64,8
<b>AQSh</b>	<b>24,4</b>	<b>18,0</b>	<b>51,6</b>
 <i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,2
<i>Import</i>	24,3	17,9	51,4
<b>Turkiya</b>	<b>30,5</b>	<b>37,8</b>	<b>36,5</b>
 <i>Eksport</i>	8,4	15,6	10,2
<i>Import</i>	22,1	22,2	26,3
<b>Hindiston</b>	<b>6,0</b>	<b>12,1</b>	<b>22,1</b>
 <i>Eksport</i>	0,2	0,3	0,0003
<i>Import</i>	5,8	11,8	22,1



Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
	<b>Germaniya</b>	<b>2,3</b>	<b>7,4</b>	<b>15,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,5	0,7
	<i>Import</i>	2,1	6,9	14,4
	<b>Belarus</b>	<b>1,6</b>	<b>2,5</b>	<b>10,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,6	0,5	8,1
	<i>Import</i>	1,0	2,0	2,4
	<b>Chexiya</b>	<b>3,1</b>	<b>9,2</b>	<b>7,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,05	-	-
	<i>Import</i>	3,1	9,2	7,3
	<b>Ozarbayjon</b>	<b>1,9</b>	<b>4,3</b>	<b>6,7</b>
	<i>Eksport</i>	1,5	4,1	6,7
	<i>Import</i>	0,4	0,2	0,0
	<b>Slovakiya</b>	<b>2,2</b>	<b>4,5</b>	<b>6,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,001	0,0
	<i>Import</i>	2,2	4,5	6,2
	<b>Italiya</b>	<b>4,8</b>	<b>7,6</b>	<b>5,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,8	1,8	2,5
	<i>Import</i>	4,0	5,8	3,3
	<b>Tojikiston</b>	<b>1,0</b>	<b>1,5</b>	<b>5,6</b>
	<i>Eksport</i>	0,4	1,0	5,5
	<i>Import</i>	0,6	0,5	0,1
	<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>2,8</b>	<b>3,7</b>	<b>5,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,4	1,9
	<i>Import</i>	2,6	3,3	3,5
	<b>Polsha</b>	<b>4,3</b>	<b>3,4</b>	<b>5,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	0,2	0,3
	<i>Import</i>	3,6	3,2	4,9
	<b>Ukraina</b>	<b>4,2</b>	<b>1,6</b>	<b>4,4</b>
	<i>Eksport</i>	3,2	1,0	1,9
	<i>Import</i>	1,0	0,6	2,5




## ANDIJON VILOYATINIG HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel)\*

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 585,5</b>	<b>112,8</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	194,4	115,8	12,3
Xonobod sh.	34,3	135,0	2,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	21,3	191,7	1,4
Andijon	30,0	111,4	1,9
Baliqchi	17,4	69,7	1,1
Bo'ston	6,2	85,4	0,4
Buloqboshi	21,9	372,9	1,4
Jalaquduq	13,3	68,3	0,8
Izboskan	5,5	58,5	0,4
Ulug'nor	7,6	87,7	0,5
Qo'rg'ontepa	15,9	47,3	1,0
Asaka	1 119,3	117,4	70,6
Marhamat	8,4	99,5	0,5
Shahrixon	34,9	89,5	2,2
Paxtaobod	8,6	119,4	0,5
Xo'jaobod	44,9	78,8	2,8

**Eng yuqori hajm,**  
mln AQSh dollari



**Eng quyi hajm,**  
mln AQSh dollari




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **70,6 %** ulush bilan **1 119,3** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Izboskan tumani **0,3 %** ulush bilan **5,5** mln AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



## ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **24,0** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,2** % ga kamayib, so'ngi uch yilda o'rtacha ko'rsatkichni qayd etdi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,2** % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **76,0** % ni tashkil etdi.



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, **380,1** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **323,7** mln AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **56,4** mln AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



## ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel, mln AQSh dollari)

### Rossiya Federatsiyasi

TSA – 93,6  
Eksport – 56,3  
Import – 37,3



### Qozog'iston

TSA – 148,9  
Eksport – 145,3  
Import – 3,6



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 95,5  
Eksport – 85,3  
Import – 10,2



### Ozarbajjon

TSA – 6,7  
Eksport – 6,7  
Import – -



### Belarus Respublikasi

TSA – 10,5  
Eksport – 8,1  
Import – 2,4



### Tojikiston

TSA – 5,6  
Eksport – 5,5  
Import – 0,1



### Moldova Respublikasi

TSA – 1,0  
Eksport – 0,8  
Import – 0,2



### Ukraina

TSA – 4,4  
Eksport – 1,9  
Import – 2,5



### Turkmaniston

TSA – 3,4  
Eksport – 3,2  
Import – 0,2



### Armaniston


TSA – 1,2  
Eksport – 1,2  
Import – -



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Qozog'iston (**39,2** %), Rossiya Federatsiyasi (**24,6** %) hamda Qirg'iz Respublikasi (**25,1** %) davlatlari bilan qayd etildi.

## ANDIJON VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(aprel mln AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **349,7** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **296,2** mln AQSh dollari, import hajmi esa **53,5** mln AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Qozog'iston, Rossiya federatsiyasi, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **288** taga yetdi va ular tomonidan **366,6** mln AQSh dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **12,7** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	MIn AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>325,4</b>	<b>366,6</b>	<b>127,0</b>	<b>112,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,7	6,7	108,0	100,5	2,0	1,8
Ichimliklar va tamaki	0,02	1,9	16,9	119,0 b.	0,005	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,5	1,9	29,3	122,6	0,5	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,7	0,5	346,8 b.	18,2	0,8	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0002	8,9	9,0 b.	0,0	0,0001
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,0	10,0	2,2 b.	9,9 b.	0,3	2,7
Sanoat tovarlari	106,6	87,9	172,1	82,5	32,8	24,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	110,8	148,9	94,5	134,4	34,1	40,6
Turli xil tayyor buyumlar	93,2	104,1	146,8	111,7	28,6	28,4
Xizmatlar	2,9	4,7	179,4	161,5	0,9	1,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,7 %** ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (**40,6 %**), turli xil tayyor buyumlar (**28,4 %**), sanoat tovarlari (**24,0**), kimyoviy vositalar (2,7 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**1,8 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	6 161,4	108,2
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	242,1	62,1
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	171,9	35,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	65,7	5,5 b.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	1 930,4	119,0 b.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 418,5	104,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	214,6	3,5 b.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	152,0	2,2 b.
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	74,3	187,9
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	495,1	18,2
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	0,2	-
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	-	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	9 345,1	67,7 b.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojaxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	237,8	8,5 b.
Noorganik kimyo moddalari	168,1	117,6
Birlamchi shakldagi plastmassalar	117,2	92,3


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	78 005,7	82,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	4 271,9	83,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 027,1	46,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 042,3	79,2
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	94 367,7	139,9
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	45 487,5	119,1
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	3 656,8	89,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 573,0	4,8 b.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	95 434,8	112,3
Poyabzal	5 740,8	111,9
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1 253,0	89,6
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	951,7	115,9

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlariга **323,7** mln AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinish, jami eksportning **88,3** % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Turkiya, Belarus va Ozarbayjon kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **91,4** % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel, % da)





## ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Qozog'iston	109,7	145,3	97,7	132,5	1	1
Qirgiz Respublikasi	106,1	85,3	146,4	80,3	2	2
Rossiya Federatsiyasi	35,3	56,3	187,3	159,5	4	3
Xitoy	40,3	23,7	131,8	58,9	3	4
Turkiya	15,6	10,2	186,5	65,1	5	5
Belarus	0,5	8,1	92,1	15,2 b.	14	6
Ozarbajjon	4,1	6,7	2,6 b.	166,2	15	7
Tojikiston	1,0	5,6	2,5 b.	5,7 b.	6	8
Turkmaniston	0,1	3,2	24,4	37,8 b.	12	9
Italiya	1,8	2,5	2,1 b.	141,3	26	10
Ukraina	1,0	1,9	30,9	198,2	8	11
Eron Islom Respublikasi	0,4	1,9	2,1 b.	5,2 b.	11	12
Armeniya	0,0	1,2	0,0	-	17	13
Litva	0,0	0,8	0,0	-	9	14
Moldova Respublikasi	1,3	0,8	68,1	59,8	16	15
Germaniya	0,5	0,7	2,3 b.	136,5	30	16
Bangladesh	0,01	0,5	43,0	36,4 b.	24	17
Polsha	0,2	0,3	22,1	2,1 b.	32	18
Portugaliya	0,0	0,3	-	55,4 b.	7	19
Afg'oniston	3,2	0,3	2,1 b.	9,1	10	20







## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-aprel)\*

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>366,6</b>	<b>112,7</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	35,1	111,2	9,6
Xonobod sh.	11,2	104,3	3,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	14,8	198,9	4,1
Andijon	14,3	197,1	3,9
Baliqchi	16,1	86,4	4,4
Bo'ston	5,6	82,3	1,5
Buloqboshi	5,2	146,1	1,4
Jalaquduq	10,8	60,1	3,0
Izboskan	3,7	64,4	1,0
Ulug'nor	7,0	109,4	1,9
Qo'rg'ontepa	9,4	44,2	2,6
Asaka	167,3	138,5	45,6
Marhamat	5,3	116,5	1,5
Shahrixon	23,0	137,8	6,3
Paxtaobod	6,2	161,0	1,7
Xo'jaobod	30,0	73,4	8,2

Eng yuqori hajm,  
mln AQSh dollari



Eng quyi hajm,  
mln AQSh dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **45,6** % bilan **167,3** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Izboskan tumani **1,0** % bilan **3,7** mln AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-aprel oylarida **22,0** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,2 %** ga yoki **3,1** ming tonnaga ko'paydi.


Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (**65,2 %**), Rossiya Federatsiyasi (**33,9 %**), Belarus (**0,4 %**), Qozog'iston (**0,4 %**) hamda Latviya (**0,2 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **5,8 mln** AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,2 %** ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **1,6 %** ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-aprel, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum</b> (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p><b>0,4 mln.</b> AQSH dollari</p> <p>0,7 ming tonna</p>  <p>↑ 129,6 %</p>	<p><b>Karam</b></p> <p><b>0,8 mln.</b> AQSH dollari</p> <p>3,8 ming tonna</p>  <p>↑ 66,9 %</p>	<p><b>Gilos</b></p> <p><b>0,01 mln.</b> AQSH dollari</p> <p>0,03 ming tonna</p>  <p>↓ - %</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p><b>0,5 mln.</b> AQSH dollari</p> <p>0,6 ming tonna</p>  <p>↓ 70,9 %</p>
<p><b>Shaftoli</b></p> <p><b>- mln.</b> AQSH dollari</p> <p>- ming tonna</p>  <p>↑ - %</p>	<p><b>Bodring</b></p> <p><b>0,7 mln.</b> AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p>  <p>↑ 3,5 m.</p>	<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p><b>0,02 mln.</b> AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p>  <p>↑ 40,7 %</p>	<p><b>Piyoz</b></p> <p><b>0,2 mln.</b> AQSH dollari</p> <p>1,7 ming tonna</p>  <p>↑ 189,2 %</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-aprel)

Davlatlar	Ming tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	20 649,2	4 016,7	65,2
 Rossiya Federatsiyasi	2 098,0	2 088,2	33,9
 Belarus	18,0	25,0	0,4
 Qozog'iston	172,7	22,2	0,4
 Latviya	20,5	9,3	0,2

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-aprel oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **65,2** %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan **1,9** barobar ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.








Xususan, 2023- yil yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha **129,5 mln** AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **35,3 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **27,9 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**73,3 %**), naqshli mato (**14,4 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **206** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **18** ta davlatiga eksport qilindi.

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, ming AQSh dollari)



	2022- yil	2023- yil
<b>Jami:</b>	<b>179 739,1</b>	<b>129 502,1</b>
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	84 734,2	94 921,6
 Naqshli mato	14 014,6	18 690,3
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	3 118,4	3 128,5
 Paxtadan yigirilgan ip	66 667,2	0,0
 Gilamlar	1 615,9	3 441,1
 Paxtadan gazlamalar	2 508,1	2 327,1
 Paxta mahsulotlari	1 697,3	745,1

## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-aprel, ming AQSh dollari)



	2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
 Qirg‘iz Respublikasi	80 836,3	60 977,4	75,4
 Rossiya Federatsiyasi	30 372,1	38 660,5	127,3
 Belarus	396,4	7 682,5	19,4 b.
 Qozog‘iston	4 163,5	5 884,2	141,3
 Tojikiston	626,9	4 865,8	7,8 b.
 Italiya	1 758,7	2 482,6	141,2
 Ukraina	898,4	1 930,5	2,1 b.
 Ozarbayjon	427,8	1 874,2	4,4 b.
 XXR	40 298,7	1 002,4	2,5
 Litva	-	818,1	-
 Moldova Respublikasi	1 309,1	793,3	60,6
 Turkiya	15 426,4	749,7	4,9
 Germaniya	449,3	490,1	109,1
 Armeniya	-	469,1	-
 Eron Islom Respublikasi	349,0	350,9	100,5
 Boshqalar	2 307,3	471,0	20,4




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozorida ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg‘iz Respublikasi (**61,0 % – 47,1 mln AQSh dollari**) va Rossiya Federatsiyasi (**38,7 % – 29,9 mln AQSh dollari**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **4 698,3** mln AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **1,3** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **61,5** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (**49,9** %), moliyaviy xizmatlar (**30,7** %), transport xizmatlar (**14,9** %) va safarlar (turizm) (**4,5** %) hissasiga to'g'ri kelgan.




## ANDIJON VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi **1 218,9** mln AQSh dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **112,8** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**66,0** %), sanoat tovarlari (**17,7** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**8,1** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,8** mln AQSh dollariga ko'paydi va **1 218,9** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **34,9** mln AQSh dollariga yetdi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	MIn AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>1 080,7</b>	<b>1 218,9</b>	<b>177,2</b>	<b>112,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,5	5,9	118,6	79,6	0,7	0,5
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	56,4 b.	185,3	0,01	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	6,8	6,8	128,7	99,8	0,6	0,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	2,8	8,3	71,1	3,0 b.	0,3	0,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,01	1,5	1,3	262,5 b.	0,001	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	68,6	99,3	176,0	144,9	6,3	8,1
Sanoat tovarlari	216,3	216,1	188,9	99,9	20,0	17,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	698,1	804,1	182,9	115,2	64,6	66,0
Turli xil tayyor buyumlar	39,0	41,9	155,9	107,4	3,6	3,4
Xizmatlar	41,5	34,9	123,5	84,0	3,9	2,9





## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 796,1	110,4
Sabzavotlar va mevalar	1 655,1	2,4 b.
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	656,0	22,8
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	621,9	161,8
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	131,7	185,3
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	1 339,3	127,8
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	1 237,6	111,4
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 138,7	65,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	337,7	91,4
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Ko'mir, koks va briketlar	4 946,2	2,5 b.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3 289,9	4,0 b.
Tabiiy yoki sun'iy gaz	57,5	-
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 406,7	254,8 b.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	122,7	399,7 b.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	39 253,5	183,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	18 545,0	2,8 b.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	15 215,0	78,6
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	10 102,8	115,1


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	81 032,7	170,8
Cho'yan va po'lat	54 170,6	82,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	48 463,8	68,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	20 174,6	98,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	565 420,9	107,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	70 771,8	163,2
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	61 364,4	73,6
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	50 685,0	192,7
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	23 786,5	136,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	10 035,6	69,9
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6 247,5	129,5
Poyabzal	667,6	127,7



2023- yil yanvar-aprel natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **4,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,8 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida Andijon viloyati **61** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Braziliya, Meksika, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya) jami importning **9,1** qismini tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI

(2023- yil yanvar-aprel, % da)





## ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Koreya Respublikasi	627,7	496,5	183,6	79,1	1	1
Xitoy	244,1	363,5	2,2 b.	148,9	2	2
Braziliya	8,1	73,1	158,6	9,0 b.	10	3
Meksika	2,2	64,8	177,1	29,8 b.	18	4
AQSh	17,9	51,4	73,7	2,9 b.	5	5
Rossiya Federatsiyasi	65,0	37,3	144,6	57,4	3	6
Turkiya	22,2	26,3	100,5	118,5	4	7
Hindiston	11,8	22,1	2,1 b.	186,9	7	8
Germaniya	6,9	14,4	3,3 b.	2,1 b.	11	9
Qirg'iziston	9,9	10,3	79,0	103,8	8	10
Chexiya	9,2	7,3	3,0 b.	79,3	9	11
Slovakiya	4,5	6,2	2,0 b.	136,9	13	12
Polsha	3,3	4,9	91,3	151,0	16	13
Tailand	3,6	3,7	42,0	101,8	14	14
Qozog'iston	1,7	3,5	58,8	2,0 b.	20	15
Eron Islom Respublikasi	3,3	3,4	128,2	103,4	15	16
Italiya	5,8	3,3	147,0	57,5	12	17
Tayvan	2,2	3,1	4,5 b.	139,4	17	18
Ukraina	0,6	2,5	62,0	3,8 b.	26	19
Belarus	2,0	2,4	198,7	120,8	19	20



## ANDIJON VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-aprel)

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 218,9</b>	<b>112,8</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	159,2	116,9	13,1
Xonobod sh.	23,0	157,6	1,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	6,5	177,0	0,5
Andijon	15,7	79,7	1,3
Baliqchi	1,3	20,4	0,1
Bo'ston	0,6	139,3	0,0
Buloqboshi	16,7	724,9	1,4
Jalaquduq	2,5	167,6	0,2
Izboskan	1,8	49,4	0,2
Ulug'nor	0,5	23,5	0,0
Qo'rg'ontepa	6,5	52,7	0,5
Asaka	952,0	114,4	78,1
Marhamat	3,0	79,2	0,3
Shahrixon	11,8	53,3	1,0
Paxtaobod	2,4	71,2	0,2
Xo'jaobod	14,9	92,5	1,2

**Eng yuqori hajm,**  
mln AQSh dollari



**Eng quyi hajm,**  
mln AQSh dollari




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **78,1** % bilan **852,0** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani **0,04** % bilan **0,5** mln AQSh dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **34,9** mln AQSh dollarini yoki jami import hajmining **2,9** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **16,0** % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellectual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**79,4** %), amaliy xizmatlar (**10,0** %) ga tegishli bo'ldi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **804,1** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **5,2** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **66,0** % ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel)




2023- yil yanvar-aprel oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **106,0** mln AQSh dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Andijon viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi – **363,6** mln AQSh dollari (**45,2** %), XXR - **225,3** mln AQSh dollari (**28,0** %) va Meksika – **54,4** mln AQSh dollari (**6,8** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI




2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **216,0** mln AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,1** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **17,7** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan rezina buyumlari (**81,0** mln AQSh dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**54,2** mln AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**48,5** mln AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**20,2** mln AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.